O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI IZBOSKAN TUMANI HOKIMINING

QARORI

Izboskan tuman, Naqshband ko’chasi, 19-uy, tel:74-312-25-15

2023 - yil 16 - noyabr 164-1-22-Q/23 Izboskan tumani hokimligi

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2024 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39- moddasi, “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga asosan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash”ga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun, asosan tumanda 2024 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. 2024 yilda tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. 1-ilovaga muvofiq, xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 8923 nafarini tashkil etadigan 7 foiz (625 kishi) dan ortmagan miqdorida, Shundan 3 foiz (19 kishi) nogironlar uchun:

Jumladan:

- O‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota onalar uchun 88 kishi;

- Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 352 kishi;

- Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 25 kishi;

- Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 119 kishi;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 17 kishi;

- odam savdosi qurbonlar uchun 5 kishi miqdorida ish o‘rinlari zahirasini belgilaydi.

- Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta'minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak, shu jumladan:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga

ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

- umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

- Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari.

Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

- Pedagog, iqtisodchi, hovlibon, farrosh, ishchi, oshpaz, kirchi, hamshira, labarant, elektrik, haydovchi, hisobchi, shifokor, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, bog‘bon, qorovul.

Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam

sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta'minlash;

- yil boshlangunga qadar o‘n kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta'minlasin, bu to‘g‘risida tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga yil boshlangunga qadar axborot berilsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini band qilib qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlasin, bu to‘g‘rida tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tugagandan keyin o‘n kundan kechikmay axborot berish;

- tashkilotlar har oyda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga yuqorida ko‘rsatilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to‘g‘risida ushbu nizomga 2-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etishi qayd etilsin.

- Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandiga muvofiq jarima solinadi.

- Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limituman markazi bilan tuzilgan shartnoma

asosida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga egadir.

3. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi 10 (o‘n) kun muddatda ushbu qarorni 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e'tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

4. Tuman hokimining mazkur qarori 2024 yil 1 yanvardan kuchga kirsin.

5. Qaror tuman hokimligining rasmiy veb-sayti hamda rasmiy telegram ijtimoiy tarmog‘iga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2022 yil 31 oktyabrdagi 253-1-22-Q/22 sonli tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2023 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi qarori 2024 yil 1 yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Umarov va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i S.Abdusalomova zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Ismoilov**

Izboskan tuman hokimining
2023-yil 16-noyabrdagi
164-1-22-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Izboskan tumanida 2024 yil davomida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari to'g'risida

MA'LUMOT

№	Tashkilot nomi	Jami ish o'rinlari	2023-yilda zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	o’n to’rt yoshgacha va nogironligi bo’lgan bolalari bo’lgan yolg’iz ota, yolg’iz onalar va ko’p bolali oilalar	umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o’tagan va O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslar	Nogironlar uchun	Pensiya oldi yoshdagi Shaxslar uchun	Jazoni o’tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko’ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo’llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun
	JAMI	**8923**	**625**	**88**	**352**	**25**	**19**	**119**	**17**	**5**
1	1-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	35	2	0	1	0	0	1	0	0
2	2-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	38	3	1	1	0	0	1	0	0
3	3-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	32	2	0	1	0	0	1	0	0
4	4-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	35	2	0	1	0	0	1	0	0

5	5-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	35	2	0	1	0	0	1	0	0
6	6-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	34	2	0	1	0	0	1	0	0
7	7-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	26	2	0	1	0	0	1	0	0
8	8-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	38	3	1	1	0	0	1	0	0
9	9-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	25	2	0	1	0	0	1	0	0
10	10-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	30	2	0	1	0	0	1	0	0
11	11-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	32	2	0	1	0	0	1	0	0
12	12-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	33	2	0	1	0	0	1	0	0
13	13-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	32	2	0	1	0	0	1	0	0
14	14-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	50	4	1	1	1	0	1	0	0
15	15-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	57	4	1	1	0	1	1	0	0
16	16-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	44	3	1	1	0	0	1	0	0
17	17-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	48	3	1	1	0	0	1	0	0
18	18-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	32	2	0	1	0	0	1	0	0
19	19-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	43	3	1	1	0	0	1	0	0
20	20-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	27	1	0	1	0	0	0	0	0
21	21-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	32	2	0	1	0	0	1	0	0
22	22-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	50	3	1	1	0	0	1	0	0

23	23-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	24	2	0	1	0	0	1	0	0
24	24-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	41	2	1	1	0	0	0	0	0
25	25-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	53	4	1	1	1	0	1	0	0
26	26-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	41	3	1	1	0	0	1	0	0
27	27-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	39	3	1	1	0	0	1	0	0
28	28-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	36	3	0	2	0	0	1	0	0
29	30-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	36	3	0	2	0	0	1	0	0
30	31-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	32	2	0	1	0	0	1	0	0
31	32-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	38	3	1	1	0	0	1	0	0
32	33-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	43	3	1	1	0	0	1	0	0
33	34-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	42	3	1	1	0	0	1	0	0
34	35-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	30	2	0	1	0	0	1	0	0
35	37-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	46	3	1	1	0	0	1	0	0
36	38-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	56	4	1	2	0	0	1	0	0
37	39-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	24	1	0	1	0	0	0	0	0
38	40-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	30	2	0	1	0	0	1	0	0
39	41-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	40	3	1	1	0	0	1	0	0
40	42-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	42	3	1	1	0	0	1	0	0

41	43-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	30	2	0	1	0	0	1	0	0
42	45-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	31	2	0	1	0	0	1	0	0
43	46-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	35	2	0	1	0	0	1	0	0
44	47-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	50	3	1	1	0	0	1	0	0
45	48-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	46	3	1	1	0	0	1	0	0
46	50-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	29	2	0	1	0	0	1	0	0
47	53-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	37	3	0	2	0	0	1	0	0
48	1-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	97	7	1	4	1	0	1	0	0
49	2-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	130	9	1	5	1	0	2	0	0
50	3-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	71	5	1	2	0	1	1	0	0
51	4-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	61	4	1	2	0	0	1	0	0
52	5-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	122	9	1	5	1	0	1	0	1
53	6-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	84	6	1	3	0	1	1	0	0
54	7-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	70	5	1	3	0	0	1	0	0
55	8-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	67	5	1	3	0	0	1	0	0
56	9-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	85	6	1	2	1	1	1	0	0
57	10-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	80	6	1	4	0	0	1	0	0
58	11-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	128	9	1	5	1	0	2	0	0
59	12-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	82	6	1	4	0	0	1	0	0
60	13-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	81	6	1	3	0	1	1	0	0
61	14-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	95	7	1	4	0	0	2	0	0
62	15-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	98	7	1	4	0	1	1	0	0
63	16-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	71	5	1	3	0	0	1	0	0

64	17-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	99	7	1	5	0	0	1	0	0
65	18-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	71	5	1	3	0	0	1	0	0
66	19-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	55	4	1	2	0	0	1	0	0
67	20-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	89	6	1	2	1	1	1	0	0
68	21-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	63	4	1	2	0	0	1	0	0
69	22-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	62	4	1	2	0	0	1	0	0
70	23-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	39	3	1	1	0	0	1	0	0
71	24-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	109	8	1	5	1	0	1	0	0
72	25-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	70	5	1	3	0	0	1	0	0
73	26-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	113	8	1	4	0	0	2	0	1
74	27-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	86	6	1	3	0	1	1	0	0
75	28-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	98	7	1	4	1	0	1	0	0
76	29-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	86	6	1	3	1	0	1	0	0
77	30-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	68	5	1	3	0	0	1	0	0
78	31-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	41	3	1	1	0	0	1	0	0
79	32-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	68	5	1	2	0	1	1	0	0
80	33-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	37	2	1	1	0	0	0	0	0
81	34-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	98	7	1	4	1	0	1	0	0
82	35-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	65	5	1	3	0	0	1	0	0
83	36-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	72	5	1	3	0	0	1	0	0
84	37-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	73	5	1	2	0	1	1	0	0
85	38-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	112	8	1	5	1	0	1	0	0
86	39-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	41	3	1	1	0	0	1	0	0
87	40-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	51	3	1	1	0	0	1	0	0
88	41-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	36	3	0	2	0	0	1	0	0
89	42-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	63	4	1	2	0	0	1	0	0

90	43-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	78	5	1	2	1	0	1	0	0
91	44-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	51	4	1	2	0	0	1	0	0
92	45-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	54	3	1	1	0	0	1	0	0
93	46-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	32	2	0	1	0	0	1	0	0
94	47-UMUMIY O'RTA TA‘LIM MAKTABI	38	3	1	1	0	0	1	0	0
95	48-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	39	3	1	1	0	0	1	0	0
96	49-UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	58	4	1	1	0	1	1	0	0
97	50-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	66	4	1	1	1	0	1	0	0
98	MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI	52	4	1	2	0	0	1	0	0
99	1-SONLI KASB-HUNAR MAKTABI	87	6	1	1	1	0	2	1	0
100	2-SONLI KASB XUNAR MAKTABI	109	8	1	3	1	1	1	1	0
101	АГРОСАНОАТ ТЕХНИКУМИ	26	2	0	1	0	0	1	0	0
102	6-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI	83	6	1	1	1	1	1	1	0
103	AYRIM FANLAR CHUQUR O'RGANILADIGAN 8-SONLILI DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNATI	47	3	1	1	0	0	1	0	0
104	15-ИХТИСОСЛАШТИРИЛГАН МАКТАБИ	79	6	1	4	0	0	1	0	0
105	ANDIJON IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTAB-INTERNATI	125	9	1	3	1	0	2	1	1
106	IZBOSKAN TUMAN "BARKAMOL AVLOD" BOLALAR MARKAZI	30	2	0	1	0	0	1	0	0
107	IZBOSKAN TUMAN MADANIYAT BO'LIMI	39	3	1	1	0	0	1	0	0
108	"IZBOSKAN TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH" DAVLAT KORXONASI	58	4	1	1	0	0	1	1	0
109	"QORADARYO-MAYLISOY IRRIGATSIYA TIZIMI BOSHQARMASI"	70	5	1	1	1	0	1	1	0
110	"SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASI ANDIJON VILOYAT BOSHQARMASINING IZBOSKAN TUMAN BO'LIMI"	72	5	1	1	1	0	1	1	0

111	CHUAMA MURUVVAT NOGIRONLIGI BO`LGAN SHAXSLAR UCHUN AYOLLAR INTERNAT UYI	198	14	1	9	1	0	2	1	0
112	OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	209	15	1	6	1	1	2	3	1
113	IZBOSKAN TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	2136	150	5	129	2	5	3	5	1
114	NORIN-QORADARYO IRRIGATSIYA TIZIMLARI HAVZA BOSHQARMASI QOSHIDAGI IZBOSKAN TUMANI IRRIGATSIYA BO`LIMI	41	3	1	1	0	0	0	1	0